



The influence of Muhammad Sharif Gulkhani's "Zarbulmasal" on Tajik literature, exemplified through one masnavi

Dilshodjon TUYMURODOV¹

Bukhara State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form 5
October 2025

Accepted 10 November 2025

Available online 25

November 2025

Keywords:

Muhammad Sharif Gulkhani,
Zarbulmasal,
masnavi,
Uzbek and Tajik literature,
Persian-Tajik literary
traditions,
satire and metaphor,
Kokand literary
environment,
literary influence and
harmony.

ABSTRACT

This article analyses the historical, cultural and artistic connections between Uzbek and Tajik literature, illustrating their mutual influence through Muhammad Sharif Gulkhani's Zarbulmasal. Drawing on scholarly evidence, the author argues that Persian-Tajik literature – particularly classical figures such as Jomi, Sa'di and Hafiz – exerted a profound influence on the formation of Uzbek literature. In Zarbulmasal, Gulkhani satirically exposes the vices of folk life – social injustice, ignorance, hypocrisy and tyranny. The masnavi verses, notably the images of the donkey and the farmer, foreground human virtues such as diligence and honesty. The study examines the work's artistic features, symbolic system and didactic content, revealing a harmony between Persian-Tajik literary traditions and Uzbek oral folk art. Overall, the article makes a valuable scholarly contribution to our understanding of the historical foundations of Uzbek – Tajik literary relations.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss10/S-pp100-104>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Tojik adabiyotida Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asariga ta'siri bir masnaviy misolida

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Muhammad Sharif Gulxaniy,
"Zarbulmasal",
masnaviy,
o'zbek va tojik adabiyoti,
fors-tojik adabiy an'analari,
hajviylik va majoz,

Mazkur maqolada o'zbek va tojik adabiyotlari o'rtasidagi tarixiy, madaniy va badiiy aloqalar tahlil etilib, ularning o'zaro ta'siri Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari misolida yoritilgan. Muallif o'zbek adabiyotining shakllanishida fors-tojik adabiyoti, xususan, Jomiy, Sa'diy, Hofiz kabi klassik

¹ Doctoral student, Bukhara State University. E-mail: d.d.toymurodov@buxdu.uz

Qo'qon adabiy muhiti,
adabiy ta'sir va uyg'unlik.

ijodkorlarning ta'siri katta bo'lganini ilmiy dalillar asosida ko'rsatadi. Gulxaniy "Zarbulmasal" asarida xalq hayoti, ijtimoiy adolatsizlik, nodonlik, riyo va zolimlik kabi illatlarni hajviy va majoziy usulda fosh etganini tahlil qiladi. Asardagi masnaviy baytlar, xususan, eshak va dehqon obrazlari orqali insoniy fazilatlar, mehnatsevarlik va halollik g'oyalari ilgari suriladi. Tadqiqotda "Zarbulmasal"ning badiiy xususiyatlari, ramziy obrazlar tizimi va didaktik mazmuni tahlil qilinib, undagi fors-tojik adabiy an'alarining o'zbek xalq og'zaki ijodi bilan uyg'unlashuvi ochib berilgan.

Влияние произведения «Зарбулмасал» Мухаммада Шарифа Гулхани на таджикскую литературу на примере одного маснави

Ключевые слова:

Мухаммад Шариф Гулхани, Зарбулмасал, маснави, узбекская и таджикская литература, персидско-таджикские литературные традиции, сатира и метафора, кокандская литературная среда, литературное влияние и гармония.

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются историко-культурные и художественные связи узбекской и таджикской литературы; их взаимовлияние иллюстрируется на примере произведения Мухаммада Шарифа Гулхани «Зарбулмасал». Автор, опираясь на научные исследования, показывает, что персидско-таджикская литература, в частности такие классики, как Джоми, Саади и Хафиз, оказала существенное влияние на формирование узбекской литературы. Гулхани демонстрирует, как в «Зарбулмасале» в юмористической и образной форме обличаются пороки народной жизни – социальная несправедливость, невежество, лицемерие и тирания. Маснави произведения, в частности образы осла и земледельца, пропагандируют идеи трудолюбия, честности и человеческого достоинства. В исследовании анализируются художественные особенности, система символических образов и дидактическое содержание «Зарбулмасала», раскрывается гармония персидско-таджикских литературных традиций с узбекским народным устным творчеством. Статья представляет собой важный научный источник, освещающий исторические основы узбекско-таджикских литературных связей.

KIRISH

O'zbek va tojik xalqlari asrlar davomida Markaziy Osiyoning bir hududida, ya'ni Movarounnahr, Xuroson va Buxoro, Samarqand, Xiva kabi madaniyat markazlarida yonma-yon yashab, umumiy madaniy muhitni shakllantirgan. Shu sababli ularning tili, adabiyoti va madaniy qadriyatlari bir-biriga kuchli ta'sir ko'rsatgan. O'zbek va tojik adabiyoti o'z ildizini fors-tojik klassik adabiy an'alaridan oladi. Bu davrda fors-tojik adabiyoti Markaziy Osiyoda ustuvor o'rinda bo'lgan, lekin turkiy adabiyot (ya'ni o'zbek adabiyoti) tez orada bu ta'sirni o'zlashtirib, o'ziga xos yangi yo'nalishni yaratgan. Yusuf Xos

Hojib, Ahmad Yugnakiy, Alisher Navoiy singari o'zbek adabiyoti vakillari fors-tojik she'riyati an'analaridan foydalanib, turkiy tilni adabiyot tili sifatida rivojlantirdilar. Rudakiy, Firdavsiy, Nizomiy, Sa'diy, Hofiz, Jomiy kabi tojik-fors adabiyoti namoyandalari esa o'z asarlari bilan butun Sharq, shu jumladan o'zbek adabiyotiga ham ta'sir o'tkazdilar.

Bu o'zaro ta'sir XI asrdan boshlangan bo'lsa, hozirgi kungacha davom etib keladi. Chunonchi nazmda: g'azal, qit'a, ruboi, masnaviy, qasida har ikkala adabiyotda asosiy she'riy shakllar sifatida rivojlangan bo'lsa, nasrda: dostonlar va hikoyatlarni keltirishimiz mumkin. XV asrda yashab ijod qilgan Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy do'stligi o'zbek va tojik adabiyotlari o'rtasidagi eng yorqin misoldir. Jomiy Navoiyning ustozlaridan biri bo'lgan, u Navoiy ijodiga g'oyaviy, falsafiy va badiiy jihatdan kuchli ta'sir ko'rsatgan. Navoiy esa Jomiyning ustoz sifatida e'zozlab, uni o'z asarlarida ulug'lagan.

Navoiy Jomiy haqida shunday deb yozgan: *"Ustodi buzurgvorim Jomiy, kalom ahli orasida quyoshdir"*.

Bu do'stlik ikki xalq adabiyotining mushtarak ruhini ifodalaydi. Bunday adabiy aloqalar rivojlanib XVIII–XIX asrlarda ijod qilgan Qo'qon adabiy muhitining yirik vakili, satirik va xalqchilik ruhidagi adabiy asarlar asoschilaridan biri Muhammad Sharif Gulxaniy va uning "Zarbulmasal" asari o'zbek adabiyotida masal janrining eng yirik namunasi sifatida tan olingan. Xususan uning "Zarbulmasal" asarida keltirilgan masnaviysini alohida e'tirof etishimiz mumkin. Gulxaniy va uning "Zarbulmasal" asariga bag'ishlangan tadqiqotlarda, asosan, Gulxaniyning hayoti va ijodiga oid ilmiy yangiliklar, "Zarbulmasal" qo'lyozmalarini o'rganish, uning she'rlarini izlab topish kabi masalalar o'rganilgan. Bu borada V. Zohidov, A. Qayumov, R. Orzubekov, V. Abdullayev, F. Is'hoqov ishlarini e'tirof etish mumkin. Xususan, P. Qayumov va A. Qayumovlar ozlarining Qo'qon adabiy muhitini o'rganishdagi ilmiy faoliyatlarida Gulxaniy hayoti va ijodini Qo'qon shoirlari qatorida sanab o'tadilar va uning serqirra ijodkor ekanini aytib, Gulxaniy ijodidan g'azallar keltiradilar.

V. Abdullayev, V. Zohidov va R. Orzubekovlarning adabiyot tarixiga bag'ishlangan darsliklarida Gulxaniyning adabiy portretini, ya'ni uning hayot yo'li, ijodiy me'rosini yoritib beradilar. Gulxaniyning hayot yo'li, uning adabiy merosini chuqurroq o'rgangan matnshunos olim F. Is'hoqovning ishlarini alohida e'tirof etish mumkin. Chunonchi, olim 1976-yilda Toshkentda nashr ettirgan "Zarbulmasal" asarining tanqidiy matnini chop ettirdi.

Yuqoridagi olimlarning ilmiy izlanishlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Gulxaniy ijodiga qardosh adabiyotlarning ta'siri haligacha tadqiq etilmaganini ko'ramiz. Biz quyida "Zarbulmasal" asarida tojik tilida keltirilgan masnaviyni izohlash orqali, Gulxaniy ijodida fors-tojik adabiyotining ahamiyatini belgilab beramiz.

ASOSIY QISM

Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari: xalq hayoti, jamiyatdagi illatlar, nodonlik, riyo, yolg'on, adolatsizlik va zolimlikni hajviy yo'sinda fosh etadi. Gulxaniy bu asarda hayvonlar tilidan foydalanib, odamlar jamiyatidagi siyosiy, axloqiy va ijtimoiy illatlarni tanqid qiladi. Asar ramziy hikoya shaklida yozilgan. Unda eshak, sher, bo'ri, quyon, tulki, xo'roz, cho'pon va boshqa hayvonlar obrazlari orqali inson xarakterlari, jamiyatdagi tabaqalanish, mansabparastlik va adolatsizlik tanqid qilinadi. "Zarbulmasal" aralash shaklda – nasr va nazm uyg'unligida yozilgan. Har bir voqea yoki hikoya so'ngida she'riy baytlar, maqollar yoki hikmatli so'zlar keltiriladi. Shu jihatdan u didaktik asar hisoblanadi.

Boyo'g'li aydi: "Hikoyat qil", Kordon aydi: Masnaviy:

*Budaast xareki dum nabudash'
Ro'zi g'ami bedumi fuzudash.*

Tarjimasi:

*Bor ekan bir dumsiz eshak,
Dumsizlikdan g'amli kunlari ortibdi.*

Baytni majoziy ma'noda izohlaydigan bo'lsak, eshak tojik va o'zbek adabiyotida dangasalik, qo'pollik ramzi sifatida kelishini e'tiborga olib, masnaviydagi eshak dumidan ayrilib olgani, dumsizligi unga ko'pdan-ko'p g'am tashvish keltirayotganligi ifodalanmoqda.

*Dar bodiyaho qadam hamezad,
Dum metalabid, dume hamezad.*

Tarjimasi:

*Cho'l-u biyobonlarni uzoq aylanib,
Har yondan o'z dumin izlab.*

Baytni majoziy ma'noda izohlar ekanmiz, eshak, ya'ni batxulq odam o'zida bo'lmagan ijobiy xislatlarni har doim boshqalardan talab etishi ifodalanadi.

*Nogoh zi ro'yi ixtiyori
Biguzosht miyoni kishtzori.*

Tarjimasi:

*Kutilmaganda, o'z xohishiga ko'ra,
Ekinzor o'rtasida to'xtab qoldi.*

Baytni majoziy ma'noda tahlil qiladigan bo'lsak, ekinzor adabiy obrazlar ishida mehnatkash, barakali insonlar timsoli sifatida beriladi, yuqoridagi baytda esa eshak yaxshilar yurtiga kelib qolganligi ifodalanadi.

*Dehqonki magar z-dur medid,
Barjast varo du go'sh burrid;*

Tarjimasi:

*Dehqon uni uzoqdan ko'rib,
O'rnidan sakrab turib, eshakni ikki qulog'ini kesdi.*

Baytni majoziy tahlil etar ekanmiz, yuqoridagi baytning uzviy davomi sifatida yaxshilar mamlakatiga kelgan batxulq eshakni ko'rgan dehqon (dehqon bu yerda – yaratuvchi, yer egasi, shoh timsolida kelgan) uni qattiq jazolaydi.

*Miskin xareki orzo'yi dum kard,
Noyofta dum, du go'sh gum kard^[1].*

Tarjimasi:

*Bechora eshak dum orzu qildi.
Dumga ega bo'lolmadi, lekin ikki qulog'ini ham yo'qotdi.*

Yuqoridagi misollarni majoziy ma'noda izohlaydigan bo'lsak, yomon inson har doim jazo olishi muqarraq ekanligini ko'ramiz.

XULOSA

O'zbek va tojik adabiyotlari bir-birini boyitib kelayotgan bir ildizli, ammo ikki tilda ifodalangan yagona madaniy oqimdir.

Ularning o'zaro ta'siri – Sharq adabiy tafakkurining yuksak namunasi bo'lib, bugungi kunda ham yangi shakl va g'oyalar bilan davom etmoqda. O'zbek adabiyotida eshak, dehqon, cho'l, ekinzor, quloq, dum kabi obrazlar: Gulxaniy asarlarida ijtimoiy-satirik ma'noda, tasavvufiy adabiyotda (Navoiy, Jomiy) ruhiy-axloqiy timsol sifatida, folklor va xalq og'zaki ijodida esa hayotiy pand-nasihat vositasi sifatida ishlatilgan. Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari nafaqat o'z davrining illatlarini fosh etgan, balki hozirgi kunda ham insoniy fazilat, halollik, adolat, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarni targ'ib etuvchi abadiy asardir. U xalq og'zaki ijodi, xalq tili va xalq donoligini yozma adabiyot darajasiga ko'targan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Gulxaniy, M. Sh. *Zarbulmasal*. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1976. (Tahrir va izohlar: F. Is'hoqov)
2. Zohidov, V. *O'zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: O'qituvchi, 1978.
3. Qayumov, A. *Qo'qon adabiy muhiti va uning namoyandalari*. – Toshkent: Fan, 1985.
4. Orzubekov, R. *Gulxaniy va "Zarbulmasal" poetikasi*. – Toshkent: Fan, 1991.
5. Abdullayev, V. *O'zbek adabiyoti tarixi kursi*. – Toshkent: O'qituvchi, 1982.
6. Is'hoqov, F. *Gulxaniy asarlarining matnshunoslik masalalari*. – Toshkent: Fan, 1976.